# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

2026-YIL / IYUL / 7-SON, I-QISM

Google Scholar

OpenAIRE

INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.*
*I-qism*

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir oʻrinbosari:**
**Karimov Norboy Gʻaniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** Oʻzbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – Oʻzbekiston doʻstlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat Gʻafforovna,** pedagogika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdugʻaniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Koʻnak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoʻja oʻgʻli,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin oʻgʻli,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshligʻi
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining oʻrinbosari
**Ochilov Farkhod,** Oʻzb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshligʻi
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil oʻgʻli,** texnika fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), katta oʻqituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari boʻyicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon oʻgʻli,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor oʻgʻli,** TDIU katta oʻqituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po'latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**G'afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o'qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
""Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.

# MUNDARIJA

MHXS (IFRS) ASOSIDA MOLIYAVIY HISOBOT TUZISHNING KORXONA RENTABELLIGI VA TO‘LOVGA QOBILIYATLILIGINI TAHLIL QILISHDAGI O‘RNI ........ 12
Urakova Maxsad Xakimovna
QAYTA TIKLANMAYDIGAN RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA MOLIYAVIY TEXNOLOGIYALARNING O‘RNI ........ 18
Yusupova Jamila Karamatdinovna
COMPARATIVE ANALYSIS OF DIGITAL FINANCIAL TECHNOLOGIES FOR CREDIT RISK PREDICTION AND MANAGEMENT IN COMMERCIAL BANKS BASED ON ARTIFICIAL INTELLIGENCE AND BIG DATA ANALYTICS ........ 21
Kholdorov Sardor Umarovich
O‘ZBEKISTONDA AGROINVESTITSIYALARNI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI ........ 28
Yusupov Komaliddin Baxtiyor o‘g‘li
O‘ZBEKISTONDA NOGIRONLIGI BO‘LGAN SHAXSLAR UCHUN ICHKI TURISTIK MAHSULOTLAR TAHLILI ........ 33
Zoxidov Firuz Faxritdinovich
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УПРАВЛЕНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯМИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИОННОГО ПОДХОДА ........ 38
Эргашбаева Нилуфар Мухаммадсайфуллаевна
MUSTAQIL TURISTLAR OQIMINI OSHIRISHDA ILG‘OR XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTON SHAROITIGA MOSLASHTIRISH IMKONIYATLARI ........ 42
Muzaffarov Akmal Axmadovich
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ТЕХНОЛОГИЙ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА И ЧАТ-БОТОВ В СИСТЕМЕ РЕГУЛИРОВАНИЯ ТРУДОВЫХ ОТНОШЕНИЙ ........ 49
Ирматова Азиза Бахрамовна
OROL BO‘YI MINTAQASIDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI (QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI MISOLIDA) ........ 56
Akramova Feruza
RECENT MEDICAL TOURISM RESEARCH IN THE WEB OF SCIENCE CORE COLLECTION ........ 68
Hao Xiaohui
HARBIY XIZMATCHILARNI KIYIM-KECHAK BILAN TA’MINLASHDA ILG‘OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH ISTIQBOLLARI ........ 76
Omonov Usmonqul Raxmonqul o‘g‘li
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI FAOLIYATI SAMARADORLIGINI BAHOLASH VA OSHIRISHNING ZAMONAVIY IQTISODIY MEXANIZMLARI ........ 83
Inobatov Abror Boshlarovich
КОММУНАЛЬНАЯ ИНФРАСТРУКТУРА И МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ: ЭМПИРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ПО РЕГИОНАМ УЗБЕКИСТАНА ЗА 2012–2024 ГОДЫ ........ 92
Мамбетсапаев Курбанияз Айниязович
АНАЛИЗ ФАКТОРОВ ФОРМИРОВАНИЯ КОНКУРЕНТНОГО ПОТЕНЦИАЛА ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ ........ 97
Ташмухамедова Карима Саматовна
СУТЬ УПРАВЛЕНИЯ СТРАТЕГИЕЙ ПРЕДПРИЯТИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ ........ 104
Тарават Абдул Салам
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA ASOSIY KAPITALGA KIRITILGAN INVESTITSIYALAR MANBALARI RIVOJLANISHINING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI ........ 112
Ibadullayev Dilshad Ibragimovich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BARQAROR SHAHARSOZLIKNI TA'MINLASHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINING EKOLOGIK VA IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH ... 117
Permatov Ilxomjon Juraboyevich

O'ZBEKISTONDA BARQAROR SHAHARSOZLIKNI HUQUQIY ASOSLARINI RIVOJLANTIRISH ... 121
Inoyatova Gulnoz Kadamovna

BARQAROR RIVOJLANISH SHAROITIDA EKOLOGIK OMILLARNING BINOLAR YEMIRILISHIGA TA'SIRINI KOMPLEKS BAHOLASH VA ULARNI KAMAYTIRISH USULLARI (TOSHKENT SHAHRI MISOLIDA) ... 125
Turabova Shodiya Anvarjon qizi

MHXSDA TUSHUM VA MOLIYAVIY INSTRUMENTLAR BO'YICHA PUL MABLAG'LARI OQIMINI HISOBGA OLISH ... 132
Eshonqulov Akmal Qudratovich

BOJXONA IMTIYOZLARINING DAVLAT BYUDJETI DAROMADLARIGA TA'SIRINI BAHOLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH ... 138
Latipov Jahongir Shavkatovich

O'ZBEKISTONDA XUSUSIY TA'LIM TIZIMIDA KADRLAR NOMUTANOSIBLIGI TENDENSIYALARI ... 144
Raxmatxo'jayev Axrolxo'ja Akmal o'g'li

EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYA JARAYONIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR VA INNOVATSION USULLARNING SAMARADORLIGI ... 150
Usmanova Gulida Valiyevna

BUXORO VILOYATIDAGI KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI TARMOQLARARO IQTISODIY SAMADORLIGI EKONOMETRIK TAHLILI ... 156
Nazarov Nazar G'ulom o'g'li

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KO'CHMAS MULK BOZORIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI ... 163
Sadikova Dildora Abdulla qizi

MAHALLALARDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH EKOTIZIMINING FUNKSIONAL BOG'LIQLIGI ... 167
Tuxtasinov Zafarjon Odiljonovich

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ МЕЖДУНАРОДНЫМИ ФИНАНСОВЫМИ ОПЕРАЦИЯМИ ... 172
Исмоилова Жасмина Ильхом кизи

SANOAT KLASTERLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING INNOVATSION FAOLIYATGA TA'SIRI ... 178
Mamadaliyev Anazxon Ziyodillayevich

XIZMATLAR SOHASIDA KICHIK BIZNES KORXONALARINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI ... 183
Ulmasova Oygul Baxtiyorovna

BIOLOGIK RESURSLARDAN SAMARALI FOYDALANISHDA INNOVATSION BOSHQARUV USULLARI ... 188
Babadjanov Akmal Shuxratovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA AHOLINING EKOLOGIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH MEXANIZMLARI ... 193
Xudoyberdiyev Norbek Komiljon o'g'li

O'ZBEKISTON KONTEKSTI: IQLIM O'ZGARISHI, OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI VA MOSLASHTIRISH SIYOSATLARI ... 198
Haydarov Ibrohimxon Abbosxon o'g'li

TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI VA BOJXONA NAZORATINI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ... 202
Kilichov Nazar Bafoyevich

TA'LIM XIZMATLARI VA ULARNI RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI ........ 208
Yusupova I.R.
OROLBO'YI HUDUDLARINING IJTIMOIYIQTISODIY SALOHIYATINI KOMPLEKS BAHOLASH VA USTUVOR RIVOJLANISH YO'NALISHLARI ........ 212
Dosnazarov Kallibek Kalbayevich
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ФИНАНСОВЫХ РЕЗУЛЬТАТОВ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ФОРМИРОВАНИЕ ДОХОДОВ ГОСУДАРСТВЕННОГО БЮДЖЕТА ........ 222
Айтмуратов Кутлымурат Жалгасович
DAVLAT ISHTIROKIDAGI KORXONALAR UCHUN KORPORATIV BOSHQARUV BO'YICHA IQTISODIY HAMKORLIK VA TARAQQIYOT TASHKILOTI (IHTT)NING YETAKCHI TAMOYILLARINI O'ZBEKISTON AMALIYOTIGA JORIY ETISH YO'NALISHLARI ........ 227
Jumadullayeva Durdona Shuxrat qizi
TURIZM SOHASIDA KLASTERNI SHAKLLANTIRISH ASOSIDA AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI ........ 233
Abdurayimov O'ktam Abdug'ani o'g'li
EKOLOGIYAGA OID HUQUQBUZARLIKLAR TARKIBI ........ 240
Majidova Shaxnoza Rustam qizi
TIJORAT BANKLARIDA KREDIT RISKINI BOSHQARISH VA MUAMMOLI KREDITLAR MUAMMOSI: TAHLIL VA YECHIMLAR ........ 244
Qurbonov Ilhom Jumaqulovich
AGROTADBIRKORLIKDA OMILLAR SARFI ASOSIDA QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQARISH HAJMINING OSHISHIGA TA'SIRINI HUDUDIY BAHOLASH ........ 248
Qurbonov Alisher Boboqulovich
ORGANIZATIONAL AND METHODOLOGICAL PROBLEMS IN THE IMPLEMENTATION OF INTERNAL STANDARDS IN AUDIT FIRMS OF UZBEKISTAN AND THEIR IMPACT ON THE QUALITY OF AUDIT SERVICES ........ 256
Kamola Bobonarova
XIZMAT KO'RSATISH KORXONA MENEJMENTIDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI ........ 262
Zohidov Jamshid Botirxonovich
SOLIQ QARZDORLIGINI UNDIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA XALQARO TAJRIBA VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI ........ 267
Hakimov Ulug'bek Furqat o'g'li
NAMANGAN VILOYATIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATI VA MAHALLIYLASHTIRISH JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ........ 272
Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich
MILLIY HUNARMANDCHILIK SOHASINI HUDUDIY RIVOJLANTIRISHNING INTEGRAL BOSHQARUV MODELI VA UNI BAHOLASH ........ 279
Yaxshiliqov Sardor Rustam o'g'li
O'ZBEKISTONDA SOLIQ SIYOSATINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: EKONOMETRIK TAHLIL ........ 288
H.S. Bobojonov
OLIY TA'LIM TIZIMIGA XORIJIY INVESTITSIYALAR JALB QILISHNING USLUBIY ASOSLARI ........ 294
Mamanazarov A.A.
OZIQ-OVQAT SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SALOHIYATINI BOSHQARISH VA ISHLAB CHIQARISH XAVFSIZLIGI TA'MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI ........ 299
Gulmatov Sunnatillo Nurillayevich
BIOLOGIK AKTIVLAR SINTETIK VA ANALITIK HISOBINI TASHKIL ETISHDA ISHCHI HISOBVARAQLAR TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 308
Axmetova Salima Seytovna

HUDUD IQTISODIYOTIGA "YASHIL INVESTITSIYALAR"NI JALB QILISH MEXANIZMLARINING USLUBIY JIHATLARI ........ 313
To'xtayev Maqsud Mansurovich
TURIZM SOXASIDA XIZMATLAR SIFATIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA) ........ 321
Suyunov R.G'.
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARINING JORIY ETISH ISTIQBOLLARI ........ 326
Turdaliyev Eldor Sho'xratjon o'g'li
AGROKLASTERLAR FAOLIYATINI RAQAMLI BOSHQARUV MEXANIZMLARI ASOSIDA SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH ........ 334
Berdiyev Abdumalik Hakimovich
AHOLI DEMOGRAFIK JARAYONLARINI STATISTIK TADQIQ ETISHDA KUZATUVLARNING O'RNI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI ........ 340
Siroj Zarina Rustambekovna
MECHANISMS FOR INCREASING THE EFFECTIVENESS OF USING ISLAMIC FINANCE INSTRUMENTS IN SMALL BUSINESS DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN ........ 347
Toshxo'jayev Abduqodirxon Abdulmanurxon ugli
KORPORATIV BOSHQARUVNING IQTISODIY MAZMUNI VA QURILISH KORXONALARI FAOLIYATIDAGI INSTITUTSIONAL AHAMIYATI ........ 354
G'iyosov Ilxom Karimovich
FORECASTING OF AGRICULTURAL PRODUCTION INDICATORS IN SURKHANDARYA REGION USING THE ARIMA MODEL ........ 361
Abdurayimov Kamoliddin Khurram oglu
BARQAROR HOSILDORLIKNI TA'MINLASHNING IQTISODIY YONDASHUVLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 369
Turayeva Gulizahro
INNOVATSION EKOTIZIMDA FAN–TA'LIM–ISHLAB CHIQARISH INTEGRATSIYASINING IQTISODIY JIHATLARI ........ 374
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich
INSON KAPITALIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INTEGRAL INDEKSINI SHAKLLANTIRISH VA UNING HUDUDIY IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASHDAGI AHAMIYATI ........ 378
Yusubboyeva Dinora Qudrat qizi
OHAK TOSH QAZIB OLISH JARAYONIDA ATROF MUHITDAGI ZARARI VA OLDINI OLISH ........ 386
Kaxorov Ulug'bek
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK LOYIHALARIDA MOLIYAVIY RISKLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI VA XALQARO YONDASHUVLAR (2019-2025 YILLAR) ........ 389
Abdukarimov Akbar G'anisherovich
KORXONALAR FAOLIYATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNI IMITATSION MODELLASHTIRISH ........ 393
Raximov Azizbek Zokirovich
OROLBO'YI MINTAQASIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGI VA TA'LIM XIZMATLARI SIFATINING TAHLILI ........ 400
Raxmanov Raxmanbergan Abdullaevich
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA BOSHQARUV TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ORQALI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI ........ 404
Kodirova Xurshida Ismoilovna
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA INNOVATSION MENEJMENT TIZIMLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI ........ 409
Yusupov Ulug'bek Shukrullayevich
Omonov Abdurazzoq Komil o'g'li

KREATIV IQTISODIYOT VA BARQAROR RIVOJLANISH MAQSADLARI O'RTASIDAGI O'ZARO BOG'LIQLIKNI BAHOLASH........................................................................................................416
Xamidova Soro
Toshpulatova Laylo
DIGITALLY-ENABLED COMMUNITY AGRITOURISM AS A PATHWAY TO RURAL INCOME IN THE ARAL SEA REGION: A CONCEPTUAL APPROACH........................................................................423
Mariya Bekimbetova
SIFAT MENEJMENTI TIZIMIGA INTEGRATSIYALASHGAN XODIMLARNI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI........................................................427
Qurbonova Dilafruz Anvarjon qizi
SANOAT ZONALARIDA TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA INFRATUZILMAVIY RESURSLARNI BOSHQARISHNING IQTISODIY MEXANIZMLARI........................................................................431
Arifbayev Bobir Dilshodovich
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA INVESTITSIYALARNI SUG'URTALASHDAGI AMALIY MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH ISTIQBOLLARI........................................................................439
Kengesbaeva Suliuxan Maxsetbay qizi
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMIGA TA'SIR ETUVCHI MAKROIQTISODIY OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI........................................................................443
Safarova Yulduz Abbos qizi
AUDITNING XALQARO STANDARTLARINI MOLIYAVIY HISOBOTNI SOXTALASHTIRISH HOLATLARINI ANIQLASHDA QO'LLASH........................................................................................................448
Xusanov Shuxrat Burxonovich
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГ В ЦЕЛЯХ ПОВЫШЕНИЯ ФИНАНСОВОЙ ИНКЛЮЗИВНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ........................................................................454
Рузибоева Нилуфар Тўлқин қизи
ORGANIZATIONAL AND MANAGEMENT MECHANISMS FOR EFFICIENT WATER RESOURCE USE BASED ON CIRCULAR ECONOMY PRINCIPLES........................................................................461
Sotvoldiyeva Muslimaxon Gayratjon kizi
HUDUDIY IQTISODIY IXTISOSLASHUVNI BAHOLASHNING ZAMONAVIY INDEKSLARI: TAHLILIY SHARH VA INTEGRAL YONDASHUV........................................................................................................467
Mansurov Zikriyo Muxsinjon o'g'li
QURILISH SANOATI KORXONALARINING INVESTITSION JOZIBADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI........................................................473
Karimov Inomjon Ortikbayevich
TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR........................................................................................................480
Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# TRANSPORT SOHASIDA INVESTITSION JOZIBADORLIK TUSHUNCHASINING MOHIYATI VA UNI BELGILOVCHI OMILLAR



**Hayitboyeva Ullijon Bobonazar qizi**
**Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti**
**ORCID: 0009-0001-6859-9991**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada transport sohasida investitsion jozibadorlik tushunchasining nazariy mohiyati tahlil qilinib, uni belgilovchi asosiy omillar tizimlashtirilgan. Investitsiya va investitsion muhit tushunchalariga nisbatan mavjud ilmiy yondashuvlar qiyosiy tahlil qilinib, transport sohasiga xos investitsion jozibadorlikning oʻziga xos xususiyatlari yoritilgan. Shuningdek, investitsion jozibadorlikni shakllantiruvchi iqtisodiy, institutsional va infratuzilmaviy omillarning oʻzaro bogʻliqligi ochib berilgan hamda mazkur tushunchaning transport iqtisodiyoti nazariyasidagi oʻrni asoslab berilgan.

**Kalit soʻzlar:** investitsion jozibadorlik, investitsion muhit, transport sohasi, investitsiya omillari, iqtisodiy rivojlanish.

**Аннотация.** В статье проанализирована теоретическая сущность понятия инвестиционной привлекательности в транспортной отрасли и систематизированы основные факторы, определяющие её уровень. Проведён сравнительный анализ существующих научных подходов к понятиям инвестиций и инвестиционного климата, раскрыты особенности инвестиционной привлекательности, характерные для транспортной отрасли. Кроме того, показана взаимосвязь экономических, институциональных и инфраструктурных факторов, формирующих инвестиционную привлекательность, а также обосновано место данной категории в теории экономики транспорта.

**Ключевые слова:** инвестиционная привлекательность, инвестиционный климат, транспортная отрасль, инвестиционные факторы, экономическое развитие.

**Abstract.** This article analyzes the theoretical essence of the concept of investment attractiveness in the transport sector and systematizes the main factors determining its level. A comparative analysis of existing scientific approaches to the concepts of investment and investment climate is conducted, and the specific features of investment attractiveness in the transport sector are identified. Furthermore, the interrelationship between economic, institutional, and infrastructural factors shaping investment attractiveness is examined, and the role of this concept in the theory of transport economics is substantiated.

**Keywords:** investment attractiveness, investment climate, transport sector, investment factors, economic development.

## KIRISH

Transport sohasi milliy iqtisodiyot tizimining tayanch elementlaridan biri boʻlib, uning barqaror faoliyati mamlakat iqtisodiy oʻsish surʼatlariga va investitsion muhit sifatiga bevosita bogʻliqdir. Xorijiy tadqiqotchilarning hisob-kitoblariga koʻra, temir yoʻl infratuzilmasiga yoʻnaltirilgan investitsiyalarning har bir foizli oʻsishi iqtisodiy oʻsish surʼatini 0,048 foizga oshiradi [1]. Bozor munosabatlari kengaygan sharoitda temir yoʻl tashkilotlari uchun anʼanaviy boshqaruv yondashuvlaridan voz kechib, investitsiyalarni jalb etishga qaratilgan yangi mexanizmlarni izlash zarurati kun sayin dolzarblashib bormoqda.

O‘zbekiston temir yo‘l tarmog‘ida investitsion jozibadorlikni oshirish masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mavjud tadqiqotlar transport infratuzilmasini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini isbotlaydi [2]. Shu bilan birga, sohadagi investitsiya dasturlarining asosiy qismi tarmoqning ichki mablag‘lari hisobidan moliyalashtirilayotgani xorijiy va xususiy investorlarni jalb etishning nazariy va amaliy asoslari yetarlicha ishlab chiqilmaganidan dalolat beradi. Bu esa, o‘z navbatida, “investitsion jozibadorlik” tushunchasining transport sohasiga xos mazmuni va uni belgilovchi omillar tizimini chuqur nazariy tahlil qilish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi PQ-329-son Qarori temir yo‘l transportini tubdan isloh qilish vazifalarini belgilagan bo‘lsa [3], 2025-yil 27-dekabrdagi PQ-391-son Qaror 2030-yilga qadar yo‘lovchi tashish hajmini 10,5 milliondan 23,5 million nafarga yetkazish maqsadini qo‘yib, sohaning investitsion ehtiyoji naqadar katta ekanligini ko‘rsatib berdi [4]. Bunday vazifalarni amalga oshirish, avvalambor, investitsion jozibadorlikning nazariy asoslarini aniq belgilashni taqozo etadi.

Ilmiy adabiyotlarda “investitsiya”, “investitsion muhit” va “investitsion jozibadorlik” tushunchalariga turlicha yondashuvlar mavjud bo‘lib, ularning aksariyati umumiqtisodiy yoki hududiy tahlil darajasida qolib ketgan, transport tarmog‘iga xos nazariy asos esa hali yetarlicha shakllanmagan. Mazkur tafovut ushbu maqolaning ilmiy muammosini belgilaydi.

Maqolaning maqsadi — investitsion jozibadorlik tushunchasining nazariy mohiyatini transport sohasi kontekstida ochib berish va uni belgilovchi asosiy omillarni tizimlashtirishdan iborat.

Tadqiqot doirasida quyidagi savollarga javob izlanadi:

– “Investitsiya”, “investitsion muhit” va “investitsion jozibadorlik” tushunchalari o‘rtasidagi nazariy farq qanday izohlanadi?

– Transport sohasiga xos investitsion jozibadorlik boshqa tarmoqlardan qaysi jihatlari bilan farqlanadi?

– Investitsion jozibadorlikni shakllantiruvchi omillarni qanday guruhlarga ajratish mumkin?

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Investitsion jozibadorlik mavzusi bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar mavjud. Snieskaa va Zykiene investitsion jozibadorlikni hududning resurslarni jalb qilish qobiliyati sifatida tushuntiradi [5].

Temir yo‘l sohasi bo‘yicha ham alohida tadqiqotlar bor. Abirova temir yo‘l transportida investitsiya jarayonini investitsion salohiyat, muhit, obraz va reputatsiya orqali tushuntiradi [6]. Sozuera va Spang Yevropa tajribasi asosida temir yo‘l loyihalarining uzoq muddat va yuqori xarajat talab qilishini ko‘rsatadi [8]. Rodrigues va boshqalar temir yo‘l infratuzilmasiga investitsiya qilishning iqtisodiy o‘sishga ijobiy ta’sirini isbotlaydi [1]. Jalolova va boshqalar O‘zbekiston transport tizimida infratuzilmani rivojlantirishning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini ko‘rsatadi [2].

Investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillar bo‘yicha ham tadqiqotlar mavjud. Windhyastiti va boshqalar infratuzilma, ishchi kuchi, bozor va boshqaruv sifatini asosiy omillar sifatida aniqlaydi [8]. Misztal va Kulakov esa soliq siyosati, huquqiy barqarorlik va institutsional islohotlarni muhim omillar sifatida ko‘rsatadi [9].

Ushbu tadqiqotlarning aksariyati investitsion jozibadorlikni umumiy yoki hududiy darajada o‘rganadi, temir yo‘l sohasiga xos omillarni alohida tizimlashtirmaydi. Mazkur maqola shu masalani yoritishga qaratilgan.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ilmiy adabiyotda “investitsiya” tushunchasiga yagona yondashuv shakllanmagan bo‘lib, mavjud nazariy qarashlarni umumlashtirish orqali uni kelajakdagi noaniq, ammo kutilayotgan daromad evaziga hozirgi mablag‘larni ma’lum muddatga va riskka yo‘naltirish jarayoni sifatida ta’riflash mumkin. Ushbu nazariy asos, o‘z navbatida, investitsiya qarorining qabul qilinish sharoitini, ya’ni investitsiya muhitini o‘rganish zaruratini keltirib chiqaradi, chunki har qanday investitsiya qarori aynan shu muhitning qulaylik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Investitsiya muhiti moliyaviy va real aktivlarni, bozor tuzilmasini hamda qulay sharoit yaratuvchi tartibga solish tizimini qamrab oluvchi keng qamrovli tushuncha bo‘lib, uning sifati bilan investitsion risk darajasi o‘rtasida teskari bog‘liqlik mavjud: muhit qanchalik qulay bo‘lsa, investorning tadbirkorlik riski shunchalik past bo‘ladi.

Investitsion jozibadorlik esa mintaqa, soha yoki korxonaning investorlar uchun jozibali bo‘lishini ta’minlovchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional shart-sharoitlar majmuasi sifatida talqin etiladi, bunda iqtisodiy barqarorlik va huquqiy muhitning bashoratliligi risklarni baholash asosini, infratuzilma rivojlanganligi esa kutilayotgan daromadlilikning real ko‘rsatkichga aylanish ehtimolini belgilaydi. Bu tushuncha ilmiy adabiyotda ko‘pincha hududlarning investorlarni jalb qilish va ushlab qolish qobiliyati sifatida talqin etiladi. Xususan, Snieskaa va Zykiene bu jarayonni resurslardan samarali foydalanish va yangi resurslarni jalb qilish qobiliyati bilan bog‘laydi [5]. Garchi bunday yondashuvlar dastlab hududiy darajada ishlab chiqilgan bo‘lsa-da, ularning negizidagi g‘oya

— resurslarni jalb qilish qobiliyati va o'z-o'zini kuchaytiruvchi rivojlanish sikli — tarmoq darajasida, jumladan, temir yo'l transportida ham amal qiladi va mazkur tadqiqotning nazariy tayanch nuqtasini tashkil etadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Temir yo'l transportida investitsiya jarayonlari tizimli xarakterga ega bo'lib, ular nafaqat investorlar va tarmoq o'rtasidagi munosabatlarni, balki O'zbekiston temir yo'li tizimidagi barcha quyi tarmoqlarning investitsiya resurslari bilan uyg'unlashuvini ham belgilaydi. Bu jarayonni investorlarni jalb etish sharoitlarini yaratishdan tortib, investitsiya faoliyati natijalarini baholashgacha bo'lgan bosqichlarni qamrab oluvchi yaxlit tizim sifatida ko'rish mumkin. Shu nuqtai nazardan, temir yo'l sohasida investitsion jozibadorlik alohida omil emas, balki bir-biri bilan uzviy bog'liq to'rt unsur — investitsion salohiyat, investitsion muhit, investitsion obraz va investitsion reputatsiya — o'rtasidagi o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan yaxlit xususiyat sifatida namoyon bo'ladi [6]. Bunda investitsion salohiyat investorning qarorlariga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi shart-sharoitlarni, investitsion risk esa uning niyatlariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan omillarni aks ettiradi. Bu ikkalasi birgalikda investitsion muhitni tashkil etib, sohaning jozibadorligini baholash uchun asosiy nazariy asosni yaratadi.

Bu tizimli murakkablik sohaning bir qator loyihaviy xususiyatlari bilan izohlanadi: xorijiy tajriba shuni ko'rsatadiki, temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish yuqori xarajat va uzoq muddatni talab qiladi hamda davlat subsidiyasiga muhtoj bo'ladi. Yetakchi hisoblangan Germaniyada ham bunday loyiha muddati 20 yildan oshishi odatiy holdir [7]. Loyihaning cho'zilib ketishi esa siyosiy-institutsional riskni kuchaytiradi: o'zgaruvchan siyosiy muhit rejalashtirilgan investitsiyani to'xtatib qo'yishi mumkin. Demak, temir yo'l sohasida investitsion jozibadorlikni baholashda umumiy iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, uzoq muddatlilik va institutsional barqarorlik kabi tarmoqqa xos xususiyatlar ham hisobga olinishi zarur.

Xalqaro tadqiqotlarni umumlashtirish orqali investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni bir necha asosiy guruhga birlashtirish mumkin. Windhyastiti va boshqalar tomonidan olib borilgan tadqiqotda infratuzilma, ishchi kuchining mavjudligi, aglomeratsiya, tabiiy resurslar, bozor, litsenziyalash tizimi va yetakchilik omillari investitsion jozibadorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatuvchi mustaqil o'zgaruvchilar sifatida aniqlangan [8]. Bunga qo'shimcha ravishda, Misztal va Kulakovning tadqiqotida soliq darajasi, sud tizimining mustaqilligi, siyosiy barqarorlik, korrupsiya darajasi va davlatning tadbirkorlikka nisbatan qulay siyosati investorlar tomonidan mamlakat investitsiya muhitini shakllantiruvchi eng muhim omillar sifatida belgilangan. Xususan, past korrupsiya darajasiga ega mamlakatlar ko'proq xorijiy investitsiya jalb qilishi, biroq institutsional islohotlarning o'zi korrupsiyani kamaytirishdan ko'ra muhimroq omil ekanligi aniqlangan [9].

Keltirilgan yondashuvlarga tayanib, temir yo'l transportida investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni to'rt guruhga ajratish mumkin:

1. infratuzilma omillari (tarmoq zichligi, texnik jihozlanganlik darajasi);
2. institutsional-boshqaruv omillari (huquqiy barqarorlik, soliq siyosati, tartibga solish tizimining sifati);
3. bozor omillari (yo'lovchi va yuk tashish hajmi, talab dinamikasi);
4. resurs omillari (malakali kadrlar mavjudligi, moliyaviy resurslarga kirish imkoniyati).

Ushbu guruhlar o'zaro bog'liq holda sohaning umumiy investitsion jozibadorlik darajasini shakllantiradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, investitsion jozibadorlik iqtisodiy, institutsional va ijtimoiy shart-sharoitlarning o'zaro ta'sirida shakllanadigan yaxlit xususiyat sifatida namoyon bo'ladi. Temir yo'l transportida bu tushuncha alohida ahamiyat kasb etadi, chunki soha investitsiyalari yuqori kapital sig'imi va institutsional barqarorlikka bog'liqlik kabi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Xalqaro tadqiqotlarni umumlashtirish natijasida investitsion jozibadorlikni belgilovchi omillarni infratuzilma, institutsional-boshqaruv, bozor va resurs omillari sifatida to'rt guruhga ajratish mumkinligi asoslandi.

Ushbu nazariy tahlil temir yo'l transportida investitsion jozibadorlikni oshirishga qaratilgan marketing strategiyalarini ishlab chiqishning boshlang'ich metodologik asosi bo'lib xizmat qiladi hamda har bir omil guruhining O'zbekiston sharoitida amaliy namoyon bo'lishini chuqurroq o'rganish zaruriyatini ko'rsatadi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Rodrigues P. G., Pereira A. M., Pereira R. M. Railroad infrastructure investment and economic performance in Portugal: An industry-specific analysis // *Journal of Infrastructure Policy and Development*. — 2024. — Vol. 8(2). — P. 8. — DOI: 10.24294/jipd.v8i2.2942.
2. Jalolova M., Sangirova U., Yakubov I., Rahimov H. Economic efficiency of the transport system and

logistics in the Republic of Uzbekistan // *Transportation Research* Procedia. — 2022. — Vol. 63. — P. 1061–1066. — DOI: 10.1016/j.trpro.2022.06.107.
3. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 10-oktyabrdagi “Oʻzbekiston Respublikasi temir yoʻl transporti sohasini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-329-son Qarori. https://lex.uz/docs/-6631602?ONDATE=11.10.2023%2000
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 27-dekabrdagi “2030-yilga qadar temir yoʻl transportida mahalliy yoʻnalishlarda yoʻlovchi tashish koʻrsatkichlarini oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida” PQ-391-son Qarori. https://lex.uz/uz/docs/-7961816
5. Snieskaa R., Zykiene I. City attractiveness for investment: Characteristics and underlying factors // Procedia – Social and Behavioral Sciences. — 2015. — Vol. 213. — P. 48–54.
6. Abirova N. Efficient management of investments and successful implementation of projects in the railway transport sector // Information Horizons: American Journal of Library and Information Science Innovation. — 2024. — Vol. 2(12). — ISSN 2993-2777.
7. Sozuera, Spang. European Transport / Trasporti Europei. — 2015. — Issue 58. — Paper No. 6. — ISSN 1825-3997.
8. Windhyastiti I., Hidayatullah S., Khouroh U. Investment attractiveness rating and factors affecting // Accounting. — 2021. — Vol. 7. — P. 163. — DOI: 10.5267/j.ac.2020.10.001.
9. Misztal P., Kulakov V. Determinants of investment attractiveness of countries and investment climate assessment methods: Survey analysis // Journal of Modern Science. — 2024. — No. 6(60).

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV
**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV
**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/1

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz